


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



2-mutaxassislik bo'yicha

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Samarqand - 2026

Annotatsiya

2-mutaxassislik bo'yicha kiruvchilar uchun 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishining 2025/2026 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi 1-kursda o'tilgan majburiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Sh.Mahmadiyev – O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.n.

Z.Xusanova – O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.b.f.d (PhD).

U.Qobilov - istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası professori, f.f.d.

M.Qodirova – istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası assistenti, f.f.f.d.

D.Muminova Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti (PhD)

A.I.Hasanov - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, PhD

Taqrizchilar:

Musurmonov E. – SamDChTI professori.

Tursunova M. – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrası professori

A.Pardayev – O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, f.f.d.

Dastur Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2026 yil _____dagi _____ - sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik tarixining eng muhim sahifalari borasida asosiy lisoniy ta'limotlar va maktablar, yo'nalishlar haqida tilning grammatik strukturasi, til va jamiyat, til va tafakkur muammolari xususida, o'zbek tilining fonetik qurilishi, fonetik qonuniyatlari, lug'at tarkibi, leksik-semantik guruhlari, xalq og'zakiy ijodi, lug'atchilik masalasi, mumtoz o'zbek adabiyoti muammolari yuzasidan bilimga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, yuqoridagi bilim va ko'nikmalar bo'yicha yo'riqnomalar ushbu dasturda mujassamlashgan.

Dasturda talabalar bilishi lozim bo'lgan fanlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirish; o'zbek tilining fonetik qurilishi, fonetik qonuniyatlari, lug'at tarkibi, leksik-semantik guruhlari, lug'atchilik masalasi haqida bilim berishdan; o'zbek tilining morfologik tuzilishi haqida zarur tushunchalar berib o'tilgan. Bu orqali talaba tilning ijtimoiy tabiati, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o'zaro mutanosibligi, o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari va ularning asarlari, mumtoz poetika asoslari haqida ma'lumotga ega bo'lishi; tilning semiotik tabiati, tilning ramzlar tizimi sifatidagi ta'rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi to'g'risida bilishi; dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida ma'lumotga ega bo'lishi; tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar kesimida paydo bo'lgan yangi chegaradosh fanlarni, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nazariyalari va metodlarini, sotsiolingvistik nazariyalar va metodlarni, struktur tilshunoslik nazariyalari va metodlarini bilishi va ulardan foydalana olish; morfologik shakllarning xilma-xilligi, tillarning morfologik tipologiyasini tahlil qilish, geneologik tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlash, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh tillar va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi munosabatni yoritish, lisoniy va nutqiy birliklarning o'zaro munosabatini tahlil qilish, xalq og'zaki ijodi haqida bilim berish, ularda folklor asarlarini tahlil va talqin qilish malakasiga ega bo'lishi; tilni umumiy, nutqni xususiy hodisa sifatida izohlash, til-tafakkur-nutq munosabatini mustaqil asoslash, tilshunoslik va adabiyotshunoslik nazariyasi masalalari, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlari haqida mustaqil fikr yuritish, diaxron tadqiqot metodlaridan foydalanish, sinxron tadqiqot metodlarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Talaba tilshunoslikning nazariy masalalariga oid muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Yuqorida nazarda tutilgan bilimlar tilshunoslik va unga yondosh sohalarining

mukammal o'rganilishi uchun, shuningdek, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratilishi uchun zarur ko'nikmalar va konsepsiyalarni talab qiladi.

I. TILSHUNOSLIK NAZARIYASI (I-QISM)

Tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida. Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati.

Tilshunoslik nazariyasi fanining mundarijasi: fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati. Til kishilar o'rtasidagi aloqa quroli sifatida.

Tilning ijtimoiy mohiyati. Til va jamiyat. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi. Kishilik tarixida urug'dosh til, qabila tili. Elat, xalq, millat tili. Tilning ijtimoiy vazifalari: emotiv, akkumulyativ, estetik, metalisoniy va b. tilning jamiyatdagi ko'rinishlari.

Til va tafakkur. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi. Tafakkur mahsuli tildagi so'zlar, so'z birikmalari va jumlar ekanligi. Til qurilishi qonunlari va tafakkur qonunlari (birliklari).

Til va nutq. Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati. Og'zaki va yozma nutq. Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi. Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asoiy turlari. Lisoniy tasnif asoslari.

Og'zaki va yozma nutq. Og'zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari.

Tilning semiotik tizimliliigi. Tilning semiotik tabiati. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati. Til strukturasi elementlar – til sathlari.

Tilshunoslikning fonetik sathi. Tilshunoslik fani bo'limlari. Tilning fonetik tuzilishi, tovush sistemasi, unli va undosh tovushlar, bo'g'in, takt, fraza.

Tilshunoslikning leksik sathi. Tilning leksik sathi, undagi o'zgarishlar, o'z va o'zlashgan qatlam, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, hosila ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya. So'zlarning shakl va ma'no munosabati.

Tilshunoslikning morfemik sathi. Morfologik qurilishi, o'zak va qo'shimcha, qo'shimchalarning turlari. So'z yasalishi.

Tilshunoslikning morfologik sathi. So'zlarni turkumlarga ajratish nazariyasi. Qadimgi hind va arab tilshunosligida so'z turkumlari nazariyasi, mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlari.

Tilshunoslikning sintaktik sathi. So'z birikmasi, gap bo'laklari, gap, sodda gap haqida tushuncha. Qo'shma gap, murakkab qo'shma gap. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap. Abzas, matn. Matn tilshunosligi.

Tilshunoslikning leksikografik sathi. O'zbek tili lug'at tarkibi, tilda so'zlarning paydo bo'lishi, tushuncha va nom o'rtasidagi aloqadorlik. Lug'atshunoslik, luga't turlari, qomusiy va filologik lug'atlar. O'zbek tilida yaratilgan lug'atlar.

Yozuv va uning shakllanish bosqichlari. Yozuv. Yozuv tarixidan. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlari tomonida qo'llangan yozuvlar. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

Tillarning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar, tillarning shakllanish va taraqqiyoti. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o'zgarishlar. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ekanligi. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.

Dunyo tillari va tillar tasnifi. Dunyo tillari. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari.

Milliy tillarning rivojlanishi va xalqaro tillar. Turkiy tillari oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Qo'shimcha turlari.

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. Komyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, muallifliklik korpusi. Pragmalingvistika. Lingvokulturologiya. Psixolingvistika. Kognitiv lingvistika.

II. ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI (1-QISM)

Adabiyotshunoslik–badiiy adabiyot haqidagi fan. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi. Fanning predmeti, maqsad vazifalari va uning shakllanish sharonini bilish, olingan bilimlarning asosida badiiy adabiyotning poetik xususiyatlarini tahlil qilish haqidagi nazariy tushunchaga ega bo'lish.

Talant. Ilhom. Mahorat. Talant – ijodkorni umuminsoniy g'oyalarni talqin etishidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirar ekan, uning zamirida shxasning hayotni anglashdagi badiiy moharati etakchilik qiladi. Talant, ilhom, mahorat uzviy birlikda namoyon bo'lsa-da, uning ijodkorlik faoliyati, shxsning kamolotini, uning hayot veqiligidagi o'rnini badiiy in'ikos etishda namoyon bo'ladi. badiiy obraz. Obraz yaratish yo'llari. Badiiy obraz, uning badiiy funksiyasi, xususiyatlari, obraz yaratish yo'llari, ijodkor mahorati kabi masalalarga nazariy jihatdan yondoshiladi. Tur va janrlar nuqtaiy nazardan obraz yaratish jarayonlari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Badiiy xarakter va adabiy tip. Badiiy asar xarakterlar yaratish san'atidir. Badiiy asardagi mukammal obraz – xarakter. Uning xususiyatlari, badiiylik funksiyasi. Adabiy tip, uning shakllanishi, tipiklashtirish qonuniyati va adabiy tip. Har qanday xarakterning shakllanish omillari, tipik va notipik holatlar.

Mazmun va shakl. Shakl va mazmun haqida tushuncha. Shakl va mazmunning dialektik birligi, biri ikkinchisiga o'tib turishi, ularning badiiylik jihatdan uzviyligi. G'oya va mavzu rang-barangligi. Bosh g'oya va yordamchi g'olalarning badiiyatdagi o'rni

Mavzu va g'oya. Badiiy asardan kelib chiqadigan qarashlar asar mavzusiga chambarchas bog'lanadi. Hayot voqeligini badiiy kashf etar ekan ijodkor, eng avvola voqelikni saralaydi, sintezlaydi uning eng xarakterli jihatlarini badiiyatga olib kiradi. Buning asosida ham hayot voqeligi mujassamlashgan bo'ladi.

Badiiy asarda sujet. Badiiy asar sujet, uning tarkiy qismlari, qo'shimcha elementlari, uning badiiyatdagi o'rni. Sujet yaratish yo'llari. Sujet ta'rifi, xususiyatlari. Sujet – qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqyealar tizimi. Sayyor (ko'chma) syujetlar. Fabula – asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqyea-hodisalar. Sujetning tarkibiy qismlari. Ekspozisiya, voqyealar tuguni, voqyealar rivoji, voqyealarning avj nuqtasi, voqyealar yechimi.

Badiiy asar tili. Badiiy asar tili. Umumxalq tili, adabiy til, badiiy til. Badiiy nutuq tushunchasi va uning shakllantirish xususiyatlari. Badiiy, adabiy, umumxalq tili. Muallif, hikoyachi, personaj nutqi. Tavsiflash vositalari. Badiiy asarning birinchi elementi badiiy til.

She'riy asarning o'ziga xosligi. Maxsus leksik qatlamlar. She'riy asardagi poetik ko'chimlar, ularning badiiy funksiyasi. She'riy asarda ohang, ritm, bo'g'in, turoq, turkum haqidagi nqazariy qarashlar.

Adabiy turlar epos, lirika, drama. Badiiy adabiyotning turlarga bo'linishi. aristotil nazariyasi va adabiy turlar klassifikatsiyasi. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari. Tur va janrlarning farqli tomonlari, sabablari. Epik turning janriy ko'rinishlari. Epos va uning xususiyatlari.

Lirik tur janrlari. Lirik tur janrlari, xususiyatlari. Lirik kechinma va lirik qahramon, uning poetik ifodasi. G'azal, ruboiy, tuyuq kabi she'riy janrlar. Bu janrlar o'rtasidagi farqli xususiyatlar. Mumtoz lirik janrlar va ularning badiiy ifodadagi o'rni. Keyingi yillardagi mlirik janrlar, badiiy ifodasi.

Dramatik tur janrlari. Dramatik turning badiiy xususiyatlari va dramatik asar yaratish an'anasi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Drama janrlari, uning ko'rinishlari, tahliliy yondoshuvlar.

Badiiy uslub va ijodiy metod. Adabiy oqimlar. Badiiy uslub va badiiyatdagi o'rni. Asrlar davomida shakllanib kelgan uslub tushunchasi. Ijodiy metodlar. Realizm, romantizm. Realizmning hayotiy haqiqat bilan uzviyligi. Rozmantizimning tasvirdagi o'rni, ularning talqindagi o'ziga xosliklari. Metod – hayot hodisalarini tanlash, ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm.

Modernizm adabiyoti. Modernizmning akmeizm, simbolizm, dadaizm, futurizm, imajinizm, syurrealizm, ekspressionizm, fovizm, shoizm, suprematizm, absurd kabi oqimlari turli ijtimoiy-ma'naviy qalqishlar davrida yuzaga kelib, badiiy adabiyotda yorqin namoyon bo'lgan yo'nalishlardir.

Postmodernizm davri adabiyoti. Keyingi yillarda, umuman, o'zbek milliy tafakkuri, xususan, adabiyot hamda san'atida ko'p to'xtalinayotgan, qator bahsu munozaralarga sabab bo'layotgan postmodernizm hodisasi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan bir tarkib va bir bosqichli hodisa bo'lmay, taraqqiyotning anchagina murakkab va o'ziga xos bosqichlaridan o'tgan ilmiy, falsafiy va estetik yo'nalishdir.

III. O'ZBEK FOLKLORI

“O'zbek folklori”ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma'naviy tarbiyaning poydevori.

– Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligi. Uning og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'lishi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari tasnifi va tavsifi

Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilishi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmasligi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analari doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda, yangilarini yaratilishi.

Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar. Qadimgi davr folklorlarining asl namunalari bizga qadar saqlanib qolmaganligi. Turli davrlarda ular turlicha o'zgarishlarga uchraganligi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba'zi namunalari ayrim tarixiy, ijrochilarda, yodnomalarda qisman saqlanib qolganligi.

Turkiy xalqlar mifologiyasi. Mif (asotir) atamasi. Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida. “Avesto”ning mifologik asoslari. O'rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari. Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlar (“O'g'uznoma”, “Kitobi dadam Qo'rqut”, “Qutadg'u bilig”, “Hibatu-l-xaqoyiq”, “Qissai Rabg'uziy”)da folklor an'analari. Totemizim, fetishizm, antimizm tushunchalari. Miflarda xalq e'tiqodlarining ifodalanishi.

Rivoyatlar-tarixiy va toponimik

Afsona va rivoyatlar, ularning hayot haqiqati bilan munosabati. Afsona va rivoyatlarning o'xshash va farqli nomonlari. Qahramonlik afsonalari, “To'maris” va “Shiroq” afsonalari. Afsonalarda Vatan tuyg'usi. Xalq afsonalarida rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirg'iz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari.

Xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, dostonlar tavsifi.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari,

axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

Turkiy epos va unda doston janrining tutgan o'rni. Xalq dostonlarining janr tabiati. Dostonlar tasnifi. Doston ijrochilari. Dostonchilik maktablari. Dostonlarda variantlilik, turkumlik masalalari.

Qahramonlik dostonlari, ishqiy-romanik dostonlar, romanik dostonlar, kitobiy dostonlar.

Zamonaviy dostonchilik. Zamondosh doston ijrochilari. «Alpomish» dostoni va uning badiiyati, versiyalari, variantlari, asosiy obrazlar tizimi.

«Alpomish» dostonining milliy adabiy ahamiyati

«Alpomish» – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan epos bo'lib, o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda ayrim millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan dostondir.

Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar.

«Go'ro'g'li» dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, YAqin va O'rta SHarqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Karo'g'li; ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan.

Xalq ertaklari-janr xususiyatlari va mazmuniga ko'ra turlari.

Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katah kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Lirik tur: Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari.

Asosan mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunalariga qo'shiq deyiladi. Qo'shiq termini keng ma'noda bo'lib, xalq she'riyati, lirik qo'shiqlar, xalq lirikasi, ashulalar degan umumiy nomlar ostida yuritilib kelinadi. Shu bilan birga, uning konkret namunalarining o'z nomlari bor. Masalan, «Yor-yor», «O'lan», «Lapar», «Lirik terma», «Alla», «Bayt-g'azal», «Kelin salom», «Xush kelibsiz», «Yig'i» va boshqalar. Qo'shiqlarni ijro etuvchilar qo'shiqchi, go'yanda, ashulakash (ashulachi), laparchi, o'lanchi deb nomlanadi.

Dramatik tur (Satirik va yumoristik janrlar): askiya, lof, latifa.

Askiya, asosan, to'y-tomoshalarda, xalq yig'inlarida, sayllarda, bayramlarda ijro etiladi. U so'zga chechan, hozirjavob, hazil-mutoyibaga moyil, zakovatli, topqir, badihago'y kishilar ma'naviy musobaqasidir. SHuning uchun askiya professional ijroga moslashgan. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi.

Loflar kishida bir lahzaalik kulgu uyg'otib, unga cheksiz zavq-shavq bag'ishlashi bilan diqqatga sazovordir. Ularning shjeti dialog asosida quriladi. Lof aytish mubolag'ali savol-(epizod)ga undan kuchliroq mubolag'aviy mantiqiy javob qaytarishdan iborat so'zga chechanlik musobaqasi shaklida namoyon bo'ladi.

Latifa - arabcha lutf, latif so'zlaridan olingan bo'lib, nozik, nafis ma'nolarini anglatadi. Latifa aytuvchilarni latifago'y deyiladi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, xalq og'zaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janrlaridan hisoblanadi.

Qo'g'irchoq teatri, og'zaki drama va ijro san'ati.

Qo'g'irchoq teatri o'ziga xos o'yin-kulgi vositasi bo'lib, xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, axloq normalari, turli munosabatlarini satira va hmor orqali namoyish etish san'ati sanaladi. Qo'g'irchoq teatrining tarixiy-genetik ildizlari juda qadimga borib taqaladi.

Og'zaki drama tomoshalarida ko'pincha hayot qiyinchiliklari, turmush muammolari, sinfiy munosabatlar keskinligi xususida to'xtanilgani bois ularda ijrochilar harakati kontrast asosida qurilgan. Fosh etish san'ati tomoshabinga ma'naviy zavq bag'ishlagan.

Maxsus tur: maqol, matal va topishmoq, olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.

Maqol - mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdiqidan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubi metafora (istiora), ko'chim, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir.

Olqishlar kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, sog'liq tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini ko'tarib, yaxshilikka da'vat etadi.

Bolalar folklori-folklor va uning badiiy xususiyatlari.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan oq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyod etgan.

Bolalar fol'klori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosini uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilatlarini- vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiat hodisalariga qarshi kurashish va ularni engish malakasini tarbiyalaydi.

Bolalar o'yinlari

Bolalar o'yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamlarning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy vazifalar sirasiga kiradi.

Mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin fol'klor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatidan o'sdi. Ko'pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor nashr ettirildi. O'zbek xalq ertaklarining bir nechta to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi.

O'zbek marosim folklori

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbiridir.

O'zbek va jahon folklorshunosligi: mushtaraklik va o'ziga xoslik

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti-harakatlar nafaqat o'zbek xalqi uchun balki dunyo xalqlari hayotida ham muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Folklor va yozma adabiyot

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarsi og'zaki usulda amalga oshadi. Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi.

O'zbek folklorining bugungi kundagi ahamiyati

Bugungi kunda ham xalq qo'shiqlarini yaratish taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilgan. Xalq qo'shiqlari ko'p qirrali va sertarmoq bo'lib, o'zbek xalqi tomonidan mehnat, marosim, mavsum, lirik yo'nalishlarda ularning minglab namunalari yaratilgan. Shuningdek, o'zbek folklori tarkibida mavjud bo'lgan kichik janrlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshib bormoqda.

IV. DAVLAT TILIDA ISH YURUTISH

"Davlat tili haqida"gi Qonunning mazmun-mohiyati va ijrosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazmun-mohiyati.

Til va yozuv masalalari. Yozuv haqida umumiy ma'lumot. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etilishi va uning bugungi kundagi ijrosi.

O'zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib yozish. Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish. Bosh harflar imlosi. Ko'chirish qoidalari.

So'z, atama va termin. Terminologiya va uning rivojlanishi. Terminlar va ularni o'rganish masalalari.

Hujjatchilik tarixi. Hujjatchilik tarixi haqida umumiy ma'lumot. So'g'd hujjatlari va vasiqalar. Ish yuritish tili va uslubi. Hujjatlar matnida hissiy-emotsional bo'yoqdor so'zlardan butunlay voz kechilib, fikrni neytral, mantiqan izchil va faqat adabiy til me'yorlari asosida bayon etish. Hujjat turlari va xususiyatlari. Hujjatlar tashkilot va korxonalarni boshqarish, axborot almashish va

huquqiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasidir. Ularning barchasi bajaradigan vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tashkiliy hujjatlar va ularning xususiyatlari: Tashkiliy hujjatlar (ustav, nizom, yo'riqnoma) muassasa yoki korxonaning huquqiy maqomini, uning tuzilishi, vazifalari va ish faoliyatini belgilab beradi. Ular uzoq muddat davomida amal qilishi va barcha xodimlar uchun majburiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Farmoyish hujjatlari va ularning xususiyatlari: Farmoyish hujjatlari (buyruq, qaror, farmoyish) korxona rahbarlari tomonidan joriy boshqaruv masalalarini hal etish va topshiriqlar berish maqsadida chiqariladi. Bu hujjatlar qat'iy iyerarxik (yuqoridan pastga) tartibda, ya'ni ijro etilishi majburiy bo'lgan buyruq shaklida rasmiylashtiriladi.

Xizmat yozishmalari va ularning xususiyatlari: Xizmat yozishmalari (rasmiy xatlar, so'rovnoma, javob xatlari) turli tashkilotlar yoki tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni ta'minlaydigan asosiy vositadir. Ularning o'ziga xosligi muayyan andozaviy qoliplarga (shablonlarga) egaligida hamda rasmiy-idoraviy uslubda aniq va qisqa yozilishidir.

Ma'lumot-axborot hujjatlari va ularning xususiyatlari: Ma'lumot-axborot hujjatlari (dalolatnoma, bildirishnoma, tushuntirish xati, bayonnoma) korxonadagi biror fakt, voqea yoki mavjud holatni qayd etish hamda rahbariyatga yetkazish uchun xizmat qiladi. Ular mustaqil ravishda huquqiy kuchga ega bo'lmaydi, balki farmoyish hujjatlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xizmat yozishmalari va ularning xususiyatlari. Xizmat yozishmalari haqida umumiy ma'lumot. Xizmat yozishmalarining turlari va xususiyatlari. Xizmat xatlari va ularning turlari.

Xizmat yozishmalari va ularning xususiyatlari. Hujjat turlari va xususiyatlari: telegramma, telefonogramma, talabnoma va ularning zaruriy qismlari.

Xodimlar faoliyatiga doir hujjatlar. *Xodimlar faoliyatiga doir hujjatlar. Mehnat daftarchasi va uni rasmiylashtirish. Shaxsiy hujjatlar yig'majildini rasmiylashtirish.*

V. HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

Kirish. O'zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti. O'zbek xalqining shakllanish va nomlanish tarixidan. O'zbek tili tarixini davrlashtirish.

O'zbek tili va uning tarixi, taraqqiyoti, qadimgi turkiy va eski turkiy tilshunoslik, formal va substansial o'zbek tilshunosligi. O'zbek xalqining shakllanishi, o'zbek etnonimi, turkiy xalq, turk so'zi, sort atamasi, o'zbek so'zi, chig'atoy tili, adabiy til, milliy til, «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'oti-t- turk», o'zbek tili tarixi, o'zbek tili taraqqiyot bosqichlari.

Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari.

Ilmiy bilish, grammatik shakl, zohiriy belgi, empirik yondashuv, UMIS va AHVO, Wpm, lison, nutq, til, me'yor, fonema, morfema, leksema, qolip, nomema,

semema, sema, soʻz, qoʻshimcha kabu birliklar mohiyati, farqli xususiyatlari va oʻzaro munosabati. Paradigma, paradigmatic munosabat, pogʻonali munosabat, partonimik munosabat, giponimik munosabat, totonim, giperonim, ziddiyat, aʼzo, belgi, bir oʻlchamli ziddiyat, koʻp oʻlchamli ziddiyat, ajralgan ziddiyat, muntazam (proporsional) ziddiyat, notoʻliq (privativ) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, ikki aʼzoli (binar) va koʻp aʼzoli ziddiyat, doimiy va moʻtadillashgan ziddiyat, tasnif masalalari.

Fonetika-fonologiya, uning oʻrganish manbayi va yoʻnalishlari. Grafika. Orfoepiya. Imlo.

Fonetika, nutq tovushi, fonologiya, ziddiyat, variantlashuv, fizik (akustik) va fiziologik (artikulyatsion) xususiyatlar, nutqiy variant, kombinator-pozitsion oʻzgarishlar, singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, grafema, morfem variant, morfonema, agglyutinatsiya. Grafika, til va yozuvning oʻzaro munosabati, oʻzbek yozuvlari tarixi, imlo, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-anʼanaviy yozuv, farqlash tamoyili, shakli tamoyili.

Leksikologiya, uning turlari, oʻrganish manbayi. Leksema va soʻz. Semasiologiya. Semema va uning tarkibiy qismlari.

